

O'ZBEKISTONDA REVERSIV VA XALQARO FAKTORINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Usmonov Abrorxon Alixon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil tadqiqotchisi.


Jahon moliya tizimida faktoring operatsiyalari so'nggi o'n yilliklarda savdo moliyalashtirishning muhim instrumentlaridan biriga aylandi. Xususan, reversiv faktoring (reverse factoring) va xalqaro faktoring mexanizmlari ta'minot zanjiri ishtirokchilarining likvidligini ta'minlash, eksport-import operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash hamda kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Global amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur instrumentlar bank kreditlashiga nisbatan kamroq riskli va yuqori operatsion samaradorlikka ega bo'lgan muqobil moliyalashtirish shakli hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida real sektorni qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyatini kengaytirish va kichik hamda o'rta biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Ayni paytda an'anaviy kreditlash mexanizmlarida garov ta'minoti talablari, axborot assimetriyasi va kredit rationingi kabi cheklovlar mavjud bo'lib, bu holat alternativ moliyalashtirish instrumentlarini keng joriy etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, reversiv faktoring va xalqaro faktoring mexanizmlarini milliy bank tizimiga integratsiya qilish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida baholanadi.

Reversiv faktoring modeli xaridorning kreditga layoqatliligiga asoslangan holda yetkazib beruvchilarni moliyalashtirishni nazarda tutadi. Bu esa kichik va o'rta korxonalar uchun likvidlikka kirish imkoniyatini kengaytiradi hamda ta'minot zanjiri barqarorligini ta'minlaydi. Xalqaro faktoring esa eksport qiluvchi korxonalar uchun to'lov risklarini kamaytirish, valyuta tushumlarini tezlashtirish va tashqi savdo operatsiyalarining moliyaviy xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida ushbu mexanizm xalqaro savdo integratsiyasini chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston bank tizimida faktoring amaliyoti bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, reversiv va xalqaro faktoring instrumentlarini keng ko'lamda joriy etish uchun institutsional, huquqiy va infratuzilmaviy shart-sharoitlarni takomillashtirish zarur. Jumladan, kredit byurolari ma'lumotlar bazasini kengaytirish, elektron hujjat aylanishi tizimini takomillashtirish, eksport sug'urtasi mexanizmlarini rivojlantirish hamda xalqaro faktoring assotsiatsiyalari bilan integratsiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro faktoring amaliyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025 yilning yanvar-sentyabr oylari davomida tijorat banklari tomonidan 152 mlrd so'm ekvivalentidagi (jamiga nisbatan 2%) regress huquqi bilan xalqaro faktoring xizmati ko'rsatildi (2.8-rasmga qarang).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari hajmi (mlrd so'mda)¹.

2025-yilning yanvar-sentyabr oylari davomida O'zbekiston tijorat banklari tomonidan xalqaro faktoring xizmatlari hajmi 152 mlrd so'm ekvivalentini tashkil etgan bo'lib, bu jami faktoring operatsiyalarining atigi 2 foiziga tengdir. Shu davrda umumiy faktoring xizmatlari hajmi 6 583 mlrd so'mni tashkil etganini inobatga olsak, xalqaro faktoringning ulushi nisbatan past darajada ekanligi kuzatiladi. Mazkur ko'rsatkich milliy faktoring operatsiyalarining ustuvorligini hamda ichki bozor ehtiyojlariga yo'naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanganini anglatadi.

Xalqaro faktoring operatsiyalarining regress huquqi bilan amalga oshirilgani alohida e'tiborga loyiqdir. Regress faktoring modeli bank uchun nisbatan past riskli mexanizm bo'lib, to'lov amalga oshirilmagan taqdirda talabni eksportyor zimmasiga qaytarish imkonini beradi. Bu esa tashqi savdo operatsiyalarida risklarni kamaytirish hamda bank kapitalini himoyalash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, regress mexanizmining qo'llanilishi hali to'liq non-regress xalqaro faktoring tizimi rivojlanmaganini ham ko'rsatadi.

So'nggi yillarda bank tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi faktoring operatsiyalarini platforma asosida amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada an'anaviy zanjirli (reversiv) moliyalashtirish modeli bilan bir qatorda onlayn

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

faktoring mahsulotlari ham faol rivojlana boshladi. Bu jarayon banklarning operatsion samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

“Sanoatqurilishbank” AJ misolida faktoring mahsulotlari bo‘yicha daromadlar dinamikasini tahlil qilish bank strategiyasida yuz berayotgan strukturaviy o‘zgarishlarni aniqlash, mahsulot portfelidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash hamda raqamli transformatsiyaning moliyaviy natijalarga ta‘sirini baholash imkonini beradi. 2024–2026-yillar kesimidagi ma‘lumotlar bank faktoring operatsiyalarida an‘anaviy modeldan raqamli platforma asosidagi moliyalashtirish tizimiga o‘tish jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval.

“Sanoatqurilishbank” AJ ning Faktoring mahsulotlaridan daromadlari (mln.so‘m)².

№	Faktoring mahsulotlari nomlari	2024	2025	2026 (Yanvar- Fevral)
1	6285-MCB Zanjirli moliyalashtirish - Reversiv faktoring (000)	3 007,5	432,6	-
2	7265-MSB Onlayn Faktoring milliy valyutada	-	34 815,3	2 848,9
3	7299-KB Onlayn Faktoring milliy valyutada	26,5	6 590,5	-
4	7448-Onlayn faktoring (O‘rta biznes 000)	-	8 121,5	17,5
Jami daromadlar				55 860,42

“Sanoatqurilishbank” AJning faktoring mahsulotlari bo‘yicha 2024–2026 yillar kesimidagi daromadlar dinamikasi bank portfelida raqamli moliyalashtirish instrumentlarining tez sur‘atlarda rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda asosiy daromad manbai sifatida MSB zanjirli moliyalashtirish – reversiv faktoring mahsuloti (3 007,5 mln so‘m) ustuvorlik qilgan. Mazkur davrda onlayn faktoring mahsulotlari deyarli shakllanmagan bo‘lib, faqat KB Onlayn faktoring bo‘yicha 26,5 mln so‘mlik tushum qayd etilgan. Bu holat 2024-yilda an‘anaviy supply chain finance mexanizmlari ustun bo‘lganini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Sanoatqurilishbank” AJda faktoring operatsiyalari 2025-yilda intensiv rivojlanish bosqichiga o‘tgan. Shartnoma summasi, faktik moliyalashtirish hajmi va diskont daromadlarining yuqori sur‘atlarda o‘sishi bankning

² Sanoatqurilishbank (SQB) ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

real sektorni moliyalashtirishdagi faolligini oshirganini tasdiqlaydi. Biroq portfel qoldig'ining sezilarli kengayishi risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va likvidlikni samarali rejalashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 12.08.2024 yildagi PF-109-son
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari. www.cbu.uz
3. Golovanov, I. D., & Frolova, V. B. (2024). Development of risk management approaches in factoring companies. ResearchGate.